



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
ADLIYA VAZIRLIGIDA  
DAVLAT RO'YXATIDAN O'TKAZILDI  
RO'YXAT RAQAMI: 3283-2  
2025 - yil 04 - Avgust

## O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MARKAZIY BANKI BOSHQARUVINING QARORI

**Bir qarz oluvchi, o'zaro aloqador qarz oluvchilar guruhi, shu jumladan bankka aloqador shaxslar uchun tavakkalchilikning eng ko'p miqdori to'g'risidagi nizomga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish haqida**

O'zbekiston Respublikasining "O'zbekiston Respublikasining Markaziy banki to'g'risida"gi va "Banklar va bank faoliyati to'g'risida"gi qonunlariga muvofiq O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki boshqaruvi **qaror qiladi:**

1. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki boshqaruvining 2020-yil 21-sentabrdagi 21/12-son qarori (ro'yxat raqami 3283, 2020-yil 29-oktabr) (Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 29.10.2020-y., 10/20/3283/1470-son) bilan tasdiqlangan Bir qarz oluvchi, o'zaro aloqador qarz oluvchilar guruhi, shu jumladan bankka aloqador shaxslar uchun tavakkalchilikning eng ko'p miqdori to'g'risidagi nizomga ilovaga muvofiq o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilsin.

2. Mazkur qaror rasmiy e'lon qilingan kundan e'tiboran bir oydan keyin kuchga kiradi.

O'zbekiston Respublikasi  
Markaziy banki Raisi  
2025-yil 10-iyul  
14/9-son



ISHMETOV TIMUR  
AMINDJANOVICH

O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki boshqaruvining  
2025-yil 10-iyuldagi 14/9-son qaroriga  
ILOVA

**Bir qarz oluvchi, o‘zaro aloqador qarz oluvchilar guruhi, shu jumladan  
bankka aloqador shaxslar uchun tavakkalchilikning eng ko‘p miqdori to‘g‘risidagi  
nizomga kiritilayotgan o‘zgartirish va qo‘shimchalar**

1. Muqaddima quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“Mazkur Nizom bankka, shu jumladan mikromoliya bankiga (bundan buyon matnda bank deb yuritiladi) aloqador shaxslar hamda bir qarz oluvchi, o‘zaro aloqador qarz oluvchilar guruhi uchun tavakkalchilikka qo‘yilgan talablarni, shuningdek bankka aloqador bo‘lgan shaxslar bilan bitimlar tuzish va bitimlar hisobini yuritish tartibini belgilaydi.”

2. 1-bandda:

uchinchi xatboshi quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“o‘zaro aloqador qarz oluvchilar – bankda nazorat asosida va (yoki) iqtisodiy asosda, mikromoliya bankida esa nazorat asosida aloqador bo‘lgan jismoniy va/yoki yuridik shaxslar;”;

beshinchi xatboshi quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“yirik tavakkalchilik – bankda jami summasi bank birinchi darajali kapitalining 10 foizi va undan yuqori bo‘lgan, mikromoliya bankida esa jami summasi ikki yarim milliard so‘m va undan yuqori bo‘lgan bir qarz oluvchi yoki o‘zaro aloqador qarz oluvchilar guruhi uchun tavakkalchiliklar;”.

3. 3-band quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“3. Bankning bir qarz oluvchi yoki o‘zaro aloqador qarz oluvchilar guruhi uchun tavakkalchilikning eng ko‘p miqdori bank birinchi darajali kapitalining 25 foizidan oshmasligi kerak, bundan mikromoliya banki mustasno.

Mikromoliya banki uchun bir qarz oluvchi yoki o‘zaro aloqador qarz oluvchilar guruhiga doir tavakkalchilikning eng ko‘p miqdori besh milliard so‘mdan oshmasligi lozim.”.

4. 5-band “oshmasligi lozim” degan so‘zlardan keyin “, bundan mikromoliya banki mustasno” degan so‘zlar bilan to‘ldirilsin.

5. 6-bandda:

birinchi xatboshi “vujudga keladi” degan so‘zlardan keyin “, bundan mikromoliya banki mustasno” degan so‘zlar bilan to‘ldirilsin;

quyidagi mazmundagi xatboshi bilan to‘ldirilsin:

“Mikromoliya banki uchun o‘zaro aloqador qarz oluvchilar guruhi nazorat asosida vujudga keladi.”.

6. 15-banddagi “davlat boshqaruvi organlari” degan so‘zlar “respublika ijro etuvchi hokimiyat organlari” degan so‘zlar bilan almashtirilsin.

7. 17-bandning ikkinchi xatboshisidan “(bank tavakkalchiliklarini boshqarishga mas’ul bo‘lmagan qo‘mitalar bundan mustasno)” degan so‘zlar chiqarib tashlansin.

8. 20-bandda:

birinchi xatboshi quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“20. Bankka aloqador bitta shaxsga to‘g‘ri keluvchi tavakkalchilikning eng ko‘p miqdori bank birinchi darajali kapitalining 15 foizidan oshmasligi lozim, bundan mikromoliya banki mustasno.”;

quyidagi mazmundagi xatboshi bilan to‘ldirilsin:

“Mikromoliya bankiga aloqador bitta shaxsga to‘g‘ri keluvchi tavakkalchilikning eng ko‘p miqdori besh milliard so‘mdan oshmasligi lozim.”.

9. 21-banddagi “50” raqami “25” raqami bilan almashtirilsin.

10. Quyidagi mazmundagi 21<sup>1</sup>-band bilan to‘ldirilsin:

“21<sup>1</sup>. Mazkur Nizomning 20-bandi birinchi xatboshisi va 21-bandida ko‘rsatilgan talablarga muvofiq bo‘lmagan banklar 2026-yilning 1-yanvariga qadar O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki bilan kelishilgan muddatlarda bosqichma-bosqich ushbu talablarga muvofiqlashtirishi lozim.”.